

**BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING DARS JARAYONLARIDA  
VERBAL KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA BOG'LANISHLI NUTQNI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

**Olimjon Eshimbetov**

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Umumta'lim fanlar va masofadan o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20031082>

*Annotatsiya.* Darslik materiallariga verbal-kommunikativ yondashuv asosida bog'lanishli nutqni rivojlantirish usullari boshlang'ich sinfi o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishda so'z, ibora va gap ustida ishlash alohida o'rin tutadi.

*Kalit so'zlar:* so'z, ibora, gap, nutq madaniyati, motivatsiya, o'qish uchun ko'rish, tanishtiruvchi o'qish, o'rganuvchi o'qish, mutolaa madaniyati.

Boshlang'ich sinfi o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishda so'z, ibora va gap ustida ishlash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda til o'rgatish g'oyasini nutqiy faoliyat sifatida amalga oshirishga doir yangi dasturlar juda ko'p. SHu bois o'zbek tili va adabiyoti, tarix, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlar integratsiyalashgan darslar tashkil etilmoqda.

Badiiy matnni o'rganishda o'quvchilarning nutq faoliyatini takomillashtirishga doir yondashuvlarni kiritish orqali samarali darslar olib borilmoqda. O'quvchilar tomonidan kommunikativ maqsadlar uchun zarur bo'lgan til birliklarini o'zlashtirish turli fikr, his-tuyg'ularini ifodalash va o'quvchilarda til ijodkorligi salohiyatini uyg'otish usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

O.Mo'minova tomonidan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asoslari tadqiq qilingan izlanishlarida verbal, noverbal va paralingvistik ta'sir kabi vositalarning nutq o'stirishdagi o'rni belgilanadi. Jumladan, bunda atrofdagilarni so'zlarga ishontirish, ruhlantirish va shu asosda harakatga undash, shundan so'ng yaxshi taassurot qoldirish muhimligi bayon etiladi [2; 115-b].

Ko'rinadiki, bular nutqiy jarayonni yanada faollashtirib, o'zaro munosabatlarni yanada ta'sirchan, yaqinroq va mazmunli bo'lishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinfi o'quvchilari nutqini rivojlantirish mazmuni axborotni qabul qilish, etkazish, til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalana bilishni nazarda tutadi. Bunda metodist S.Tajbenova tomonidan nazariy tushunchalarni o'zlashtirish va amalda qo'llashga o'rgatishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi xatolarni e'tibordan chetda qoldirmaslik bog'lanishli nutq o'stirish tamoyillaridan biri sifatida ajratiladi [3; 63-b].

Boshlang'ich sinflarning "O'zbek tili" o'quv fanidan davlat ta'lim standartlarida quyidagilar belgilangan: "o'rganilayotgan mavzular doirasida 900–1000ga yaqin so'zni faol o'zlashtirish va tinglangan mavzu va vaziyatlar doirasida hajmi 50tagacha so'zdan iborat bo'lgan matnning mazmunini tushuna olish; o'zbek bolalar yozuvchilarining hajmi 30–60tagacha so'zdan iborat bo'lgan she'rlaridan 20–25tasini, o'zbek xalq og'zaki ijodidan 20–25ta topishmoq, maqol, tez aytishlarni yoddan bilish, o'zbek xalq ertaklaridan 8–10tasini o'qish va qisqacha mazmunini eslab qolish; tinglab yoki o'qib eslab qolingan hajmi ko'pi bilan 40–50 tagacha so'zdan iborat matnning to'la mazmunini yoki qisqartirilgan holda asosiy mazmunini hikoya qilib berish; o'zlashtirilgan so'zlar doirasida o'z fikrlarini tasvirga tayangan yoki tayanmagan holda hajmi 20–50ta so'zdan iborat matn tarzida bayon etish; hajmi 30–50ta so'zdan iborat o'qilgan yoki tinglangan matn mazmunini to'liq yoki qisqartirilgan holda yozma ravishda

bayon etish; hajmi 30–60 soʻzdan iborat matndan kerakli maʼlumotni olib, unga reja tuzish va yozish; oʻzi, ota-onasi, oilasi, maktabi, doʻsti, shugʻullanayotgan ishi, koʻrgan filmi yoki spektakli, oʻqigan kitobi haqida hajmi 20–40 soʻzdan iborat yozma maʼlumot berish; hajmi 35–50tagacha soʻzdan iborat diktant yozish talablari qoʻyiladi” [4; 29–31-b.].

Qoraqalpogʻiston umumtaʼlim maktablarida bogʻlanishli nutqni rivojlantirish ikki tillilik sharoitiga toʻgʻri keladi. Bunda quyidagilar farqlanadi:

- a) soʻz ustida ishlash;
- b) ibora va gap ustida ishlash;
- v) bogʻlanishli nutq ustida ishlash.

Bu ishlarning barchasi baravar rivojlanmoqda, garchi ular bir vaqtning oʻzida subordinatsiya munosabatlarida boʻlsa-da, soʻzlar jumlar uchun, bogʻlanishli nutq uchun material beradi. Hikoyaga tayyorgarlik koʻrilganda, inshoga tayyorgarlik ishlaridagi kabi soʻz, ibora va jumlar ustida ish olib boriladi. Har qanday tilning soʻz boyligi ichki tuzilishi va oʻzaro munosabatlar nuqtai nazaridan tizimni tashkil etadi. Zamonaviy oʻzbek tilining soʻz boyligi juda murakkab tizimdir. Kelib chiqishi, ishlatilish sohasi va uslubiy ahamiyati jihatidan farq qiluvchi soʻzlar guruhlaridan iborat. Tizim munosabatlari soʻzlarning boshqa guruhlariga ham xosdir.

Oʻzbek tili leksikasi bizga oʻzbekcha soʻzlarning murakkab va xilma-xil mazmuniga chuqur kirib borish imkonini beradi. Bu esa milliy maktab uchun juda muhim.

Nutq oʻstirish ishlari nafaqat, soʻz ustida ishlash mashqlari, balki hikoya, tasviriy va muhokama xarakteridagi matnlar bilan ishlash orqali ham amalga oshadi. Bu esa oʻquvchiga har bir tasvirlanayotgan narsa-predmetni tasavvur qilish, u haqda xabar berish yoki obʻektga nisbatan subʻektning munosabatlarini ifodalashda ahamiyatga ega. Ayniqsa, tasviriy matnlar bogʻlanishli nutq qatori sezgirlik, kuzatuvchanlik, tasavvur, idrok va fantaziyani shakllantirishda ham samaralidir.

U.Ibragimova tasviriy matn yaratishni yoki tasvirlashni oʻquvchilarning kuzatuvchanlik faoliyati bilan bogʻlaydi. SHu sababi ham oʻquvchilarni oʻzbek tili darslarida kuzatuvchanlikka odatlantirish, tevarak-atrofga nisbatan eʼtiborli boʻlishga oʻrgatish, ularning muhim xususiyatlarini aniqlashga yoʻnaltirish haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Binobarin, har ikkala nutq turiga baravar eʼtibor qilishni talab etadi. Ishda taʼkidlanishicha, aksariyat hollarda oʻquvchilarning yozma nutqiga eʼtibor ortishi oqibatida ogʻzaki nutq uning soyasida qolib ketishi haqidagi fikrlar oʻz aksini topgan [1; 11-b.].

Bizningcha, mana shunday kamchiliklarni bartaraf etishda matnni qayta soʻzlash, shaklini oʻzgartirib hikoyalash va sheʼriy asarlarni nasriy yoʻsinda ifodalash kabi qulay imkoniyatlar ham mavjud.

Oʻzbek tili leksikasining asosiy xususiyatlaridan biri til boyligi, goʻzalligi, taʼsirchanligi va amaliy ahamiyatidan iborat ekanligidir. Oʻzbek tilida qoʻllaniladigan juda koʻp soʻzlar turli lugʻat turlaridan tashkil topgan. SHuni esda tutish lozimki, faol ishlatiladigan soʻzlar bir nechta maʼnoga ega. Bu esa yana minglab yangi leksik birliklarning paydo boʻlishiga olib keladi, ularning maʼnolarini faqat kontekstda tushunish mumkin. SHuni ham nazarda tutish kerakki, izohli lugʻatlarda koʻp ishlatiladigan soʻzlar keng oʻrin olgan. Maʼlumki, tilda juda koʻp atamalar, geografik nomlar, kasbga oid soʻzlar, nomlar va boshqalar mavjud. Leksik tizim oʻzining keng qamrovliligi bilan boshqa til tizimlaridan fonetik va grammatik jihatdan (fonemalar soni cheklangan, oʻnlab; nisbatan kam sonli tuslovchi, turlovchi va soʻz yasovchi qoʻshimchalar) farq qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ibragimova U. Matn tuzish ko'nikmasini shakllantirish – yozma nutqni o'stirish vositasi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2022. – № 1. – V. 10-12.
2. Mo'minova O. O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 115-117.
3. Tajbenova S.S. Ona tili darslarida o'quvchilarni nazariy bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatish metodikasi (ta'lim qozoq va o'zbek tillarida olib boriladigan boshlang'ich sinflar misolida). – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – 76 b.
4. Tolipova R. va boshq. O'zbek tili fanidan o'quv dasturi (2–4-sinf) //
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Respublika ta'lim markazi. -Toshkent: 2007. – B. 29-31.
6. 5.O.Eshimbetov. boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zbek tilidan bog'lanishli nutqini rivojlantirish metodikasi. (ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. Toshkent, 2022. – 119 b.